

KONFERENSIYALAR.COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**XV RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

AVGUST, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>



Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 15-son (13-avgust, 2026-yil).– 103 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 10-avgust

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi XV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

ABDULLA AVLONIY IJODIDA SAYOHATNING G'OYAVIY VA BADIY AHAMIYATI

Kimsanboyeva Shohsanam

Farg'ona davlat universiteti magistranti

Email: shohsanamkimsanboyeva83@gmail.com

Tel: +998 90 160 02 77

Farg'ona, O'zbekiston

Annotatsiya. Mazkur maqolada Abdulla Avloniy ijodida sayohat motivining o'рни, uning publitsistik va ma'rifiy ahamiyati tahlil qilinadi. Xususan, "O'z shahrimga sayohat" va "Afg'on sayohati" asarlarida sayohatning jamiyatni tanqidiy kuzatish, ijtimoiy muammolarni yoritish hamda ma'rifatparvarlik g'oyalarini targ'ib etishdagi o'рни yoritiladi.

Kalit so'zlar: Abdulla Avloniy, jadidchilik, sayohatnoma, publitsistika, ma'rifatparvarlik, ijtimoiy tanqid.

THE IDEOLOGICAL AND ARTISTIC SIGNIFICANCE OF TRAVEL IN ABDULLA AVLONIY'S WORKS

Kimsanboyeva Shohsanam

Master's Student, Fergana State University

Annotation. This article examines the role of the travel motif in Abdulla Avloniy's works and its journalistic and educational significance. Special attention is paid to A Journey Through My City and Afghan Journey, where travel serves as a means of social criticism and the promotion of enlightenment ideas.

Keywords: Abdulla Avloniy, Jadidism, travel writing, journalism, enlightenment, social criticism.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ya-dif-y2026v2i15/n06>

Jadid matbuotida bundan tashqari ko'pgina millatimiz oydinlari qalam tebratgan. Ulardan biri Abdulla Avloniydir. Abdulla Avloniy 1878- yil 12- iyulida Toshkentda Mergancha mahallasida to'quvchilar oilasida tug'ilgan. U ma'rifatparvar shoir, dramaturg, jurnalist, olim, davlat va jamoat arbobi. Oilasidagi moddiy yetishmovchiliklar sababli bolaligidan suvoqchilik, g'isht quyish, pechkachilik, binokorlik, duradgorlik kabi kasblar bilan shug'ullangan. Bularning ortidan "Imoratchi usta" degan nom oladi. U tarjimai holida bu haqida shunday yozgan: "12 yoshimdan O'qchi mahallasidagi madrasada dars o'qiy boshladim. 13 yoshimdan boshlab yoz kunlari mardikor bo'lib ishlab, oilamga yordam qilib, qish kunlari o'qir edim. 14 yoshimdan boshlab, o'sha zamonga muvofiq har xil she'rlar yoza boshladim. Bu zamonlarda "Tarjumon" gazetasini o'qib, zamondan xabardor bo'ldim". O'qchidagi eski maktabda, so'ng madrasada o'qigan (1885—1895). Madrasani bitirib, maktabdorlik bilan shug'ullandi. Orenburg, Qozon, Tiflida chiqib turgan gazeta-jurnallarni kuzatib borgan.[1] Ma'rifatparvarning yoshligidan shunday qiyinchiliklarni boshidan o'tkazgani uning estetik dunyo qarashini shakllantirdi. Keyinchalik Avloniyning "Afg'on sayohati" nomli asarida xalqning qiyinchiliklari, mustamlakachilarning istibdodi va xalqning istiroblarini payqay olgani va xalq bilan yongani, xalq dardi bilan yashaganini ko'rishimiz mumkin. Avloniy XX asr boshida jadidchilik harakatiga qo'shildi. Toshkentdagi jadidlarning faol ishtirokchilaridan biri sifatida tanildi. 1906-yildan

she'rlari bilan matbuotda qatnasha boshlagan. Arab, rus, fors tillarini o'rganib, bu tillarda ijod qilgan mutafakkirlarning asarlarini o'qigan, ba'zilar (masalan, Lev Tolstoy, Konstantin Ushaniski asarlari) ni o'zbek tiliga tarjima qilgan. 1906-yilda "Taraqqiy", 1907-yilda o'z uyida "Shuhrat" gazetalarini chiqargan. Bu gazetalar yopib qo'yilgach, 1908-yilda yashirin ravishda "Osiyo" gazetasini nashr etdi. 6-sonidan so'ng hukumat bu gazetani ham taqiqlab qo'yan. Avloniy birinchi bo'lib kimyo, geografiya, fizika va astronomiya fanlarini maktabda o'qitish taklifini beradi. Ilg'or g'oyalarni maktab orqali xalqqa tarqatishga harakat qildi: Toshkent shahrining Mirobod mahallasida mahalliy aholi bolalari uchun yangi usul maktabi ochib (1908), o'zi ona tili va adabiyotdan dars berdi. 1909-yilda "Jamiyati xayriya" tuzib, yetim bolalarni o'qitgan. Shu yili "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" nomli to'rt qismdan iborat she'riy to'plamining birinchi juz'ini nashr ettirgan. 1912-yilda Avloniy Toshkent Degrez mahallasida ikki sinfli maktab ochgan. Bu maktabda dunyoviy fanlar o'qitilishi bilan maktabxonalaridan farq qilgan. Avloniy yangi maktablar uchun qo'llanma va o'qish kitoblar yozib, nashr qildirgan (masalan, „Birinchi muallim“, 1911; "Ikkinchi Muallim", 1912; "Turkiy guliston yoxud axloq", 1913; 4 juzd (qism)li "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" to'plami, 1909—1915; "Maktab gulistoni", 1915; "Mardikorlar ashuvlasi", 1917 va boshqalar). Munavvarqori, Tavallo, Rustambek Yusufbekov, Nizomiddin Xo'jayev, Shokirjon Rahimiy kabi taraqqiychilar bilan birgalikda "Nashriyot" (1914), "Maktab" (1916) shirkatlarini tashkil etgan. Avloniy xalq ongini oshirish uchun teatr san'atidan ham foydalangan. U 1913-yilda "Turkiston" nomli teatr truppasini tashkil etishda va uning ishida faol qatnashgan. 1910—1916-yillarda bir qancha sahna asarlarini tarjima qildi va o'zi sahnalashtirdi. Avloniyning sahna asarlari Toshkent, Farg'ona, Andijon, Qo'qon, Xo'jand kabi shaharlarda qo'yilgan. Bu asarlarda XX asr boshlaridagi Turkiston hayotining keng manzaralari o'z ifodasini topgan.

Avloniy truppasida Manon Uyg'ur tarbiyatopgan truppa bilan Hamza, Ozarbijon dramaturglari Uzayr Hojibekov, Ruhullo hamkorlikda bo'lgan. Oktyabr inqilobidan keyin xalqqa va'da qilingan erkinlikning berilmaganligi shoir ijodida tushkunlikning paydo bo'lishiga olib keldi ("Xafalik soatda" she'ri, 1919). Avloniy 1917-yilda "Turon" gazetasini nashr qildi. Gazetasida siyosiy va ijtimoiy voqealar yoritilgan. 1918-yilda Avloniy "Ishtirokiyun" gazetasini tashkil etishda qatnashdi va uning muharriri bo'ldi. 1919—1920-yillarda Sho'ro hukumatining Afg'onostondagi siyosiy vakili va konsuli. Afg'oniston xalq ta'limi vaziri. "Kasabachilik harakati" jurnali bosh muharriri (1921). 1921-yildan Avloniy maktablar ochish, xalqni savodxon qilish, o'zbek xotin-qizlarini o'qitish, o'qituvchilar va ziyoli kadrlar tayyorlash ishlari bilan shug'ullandi. Avloniy Toshkentda 1934-yil 25-avgustda 56 yoshida vafot etgan va Botkin ko'chasidagi qabristonga dafn qilingan. 1927-yilda Mehnat Qaramoni unvoniga sazovor bo'lgan. 2020-yilda "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlandi. Avloniy qatag'on qilinmagan, xalq dushmani sifatida qoralanmagan bo'lsa-da, lekin 1966-yilgacha uning ijodi o'rganilmagan. O'limidan so'ng asarlari chop etilmagan. Uning ijodini Begali Qosimov tadqiq etgan va Abdulla Avloniy asarini yozgan. 1968-yilda Abdulla Avloniy yodigorlik uy-muzeyi tashkil etilgan. Toshkentda Avloniy nomidagi ko'cha, 2 ta mahalla, madaniyat uyi, miliy-tadqiqot intituti mavjud. 2019-yilda Avloniyning Afg'onostondagi missiyalari tog'risida hikoya qiluvchi "Avloniy" filmi premyerasi bo'lib o'tgan. Shoir Muhammad Ali o'zining "Boqiy dunyo" (1979) she'riy romanida Abdulla Avloniy asar qahramonlaridan biri sifatida tasvirlagan. Toshkentdagi Adiblar xiyobonida Avloniy haykali o'rnatilgan.[2]

Abdulla Avloniyning ijodida sayohatning o'rniga to'xtalib ketamiz. Yirik pedagog, taniqli ma'rifatparvar, serqirra adib, publitsist va muharrir Abdulla Avloniy XX asr birinchi choragida O'zbekiston (1924 yilgacha Turkiston) ijtimoiymadaniy hayotida sezilarli rol o'ynagan siymolardan biridir. Siyosiy ongining shakllanishida XX asr boshlaridagi yirik siyosiy-ijtimoiy voqyealar muhim omil bo'ldi. Maslakdoshlari singari Avloniy ham mahalliy aholi zamonaviy ilm-ma'rifatni egallash yo'li bilangina milliy zulmdan qutulib, ozodlikka, istiqbolga erishadi deb o'yladi. Shu bois uning publitsistikasida, xususan sayohatnomalarida ma'rifatparvarlik, yuksak axloqiy g'oyalarni targ'ib qilish xususiyatlari yetakchilik qildi. Abdulla Avloniyning sayohatga bag'ishlangan ikkita maqolasi: "O'z shahrimga sayohat" va "Afg'on sayohati" mavjud. Ovqat yeyish, kiyim kiyish, uxlash, umuman harakat qilish qanchalik muhim bo'lsa, shu jarayonda insonning o'zini o'rab turgan olamni bilishga qiziqish ham ortib boraveradi. Buning uchun kitob o'qiydi, muloqot qiladi, boshqa faoliyat turlarini o'rganadi, atrofni kuzatadi. Shu ma'noda ma'naviy ehtiyojlarning ichida o'zi yashab turgan hududdan (qishloq, shahar, mamlakatdan) tashqarini ko'rishga bo'lgan ishtiyoq insonning ongli hayotining ajralmas qismiga aylanadi. Bolalikda o'zi ko'rgan tog'ning ortida nima borligi, dalalar, poyonsiz kengliklarning chegarasi qayerdaligi, daryoning qayerdan boshlanishi va va qayerda tugashini bilishga qiziqmagan bola bo'lmasa kerak. Shundanmi, yo'lga, safarga bo'lgan ishtiyoq hamisha insonni yangi manzillar sari chorlayveradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, Abdulla Avloniy "O'z shahrimga sayohat" maqolasida sayohat haqida quyidagi g'aroyib bir fikrni ilgari suradi: "Ko'ramanki, ba'zi odamlar sayohat qiladilar. Jarida va jurnallarga qilgan sayohatlarini, ko'rgan-kechirganlarini oqizmaytomizmay, ignasidan ipigacha yozadirlar. Man ularning yozganlarini ko'rub, achchig'im chiqub aytur edimki, "sayohat" nima degan gap, mundan nima ma'no chiqar?" deb. O'ylab ko'rsam deb davom etadi muallif, bundan foydali ishlar ham bor ekan, bir kishi sayohatga chiqib, o'zga bir viloyatga borsa, u yerdagi insonlarning turmushidan, ilm va ma'rifatidan, hunar va san'atidan, til va adabiyotidan, sha'ni va shavkatidan, qadr-qiymatidan, savdo va tijoratidan xabardor bo'larkan deydi. [3] Abdulla Avloniy sayohatga chiqishni xohlaydi, lekin bir tomondan bunga yo'qchilik xalaqit bersa, ikkinchi tomondan homiylarning topilmasligidan noliydi. Shuning uchun chet ellarga sayohatga chiqishga biron-bir homiy yoki o'zida imkoniyat bo'lgunga qadar o'z shahrimni aylanib turay deydi. Avval shaharning rasta va bozorlaridagi uchrab turadigan (afsuski bunday voqyealar hozir ham tez-tez o'chraydi) bir-biri bilan yoqalashib, mushtlashib ketganligini tasvirlaydi. Madrasalarda o'qitishni hali ham eskicha tartibda olib borilayotganini achchiq tanqid qiladi. Keyingi sahnalarida boylarning ziqnaligi, zamonaviy iqtisodiy qoida va munosabatlarga beparvo qarashlari oqibatida huda-behuda moddiy zarar ko'rishlari mushohada etiladi. Ro'za va zakot borasidagi ularning hiyla va firibgarliklarini fosh etadi. Maqola shaharning tabiati va hayvonoti haqidagi fikrlari bilan yakunlanadi.

O'zbek ma'rifatparvarlik harakatining yirik namoyandalardan biri Abdulla Avloniy ijodi nafaqat adabiy, balki ijtimoiy, pedagogik va siyosiy tafakkur bilan ham yo'g'rilgan. U o'z davrining og'riqli masalalariga befarq bo'lmagan, jamiyatda kuzatilgan illatlar va taraqqiyotdan orqada qolish sabablari ustida jiddiy mulohaza yuritgan. Avloniy ijodida sayohat va kuzatishlar asosida yozilgan asarlar alohida o'rin tutadi. Ayniqsa, uning "O'z shahrimda sayohat" nomli hajviy-satirik maqolasi mazmuni, shakli va g'oyaviy yo'nalishi jihatidan dolzarbligi bilan ajralib turadi. Ushbu asar orqali muallif sayohatni tanqidiy qarash vositasiga aylantirib, jamiyatdagi muammolarni fosh etadi va ijtimoiy uyg'onish zarurligini targ'ib qiladi.

Avloniy uchun sayohat – bu ko'ngilxushlik emas, balki inson tafakkurini, dunyoqarashini kengaytiruvchi, boshqa xalqlarning taraqqiyoti bilan tanishtiruvchi vositadir. Asarda muallif dastlab sayohatni bekorchilik deb o'ylaydi, lekin vaqt o'tishi bilan anglaydiki, sayohat insonning hayotini mazmunan boyitadi. U o'z shahrida yurib, undagi illatlarni kuzatadi, ularni badiiy uslubda tanqid qiladi. Bu bilan sayohat ijtimoiy yangilanish uchun turtki bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.

Avloniy xorijsa borolmaganini afsus bilan bildiradi. Lekin bu uni to'xtatmaydi: u o'z shahrida sayohat qilishga qaror qiladi. "Ichki sayohat" orqali muallif o'z jamiyatini kuzatadi: bozorlardagi tartibsizlik, choyxonalardagi bekorchilik, madrasalardagi samarasiz ta'lim tizimi – bularning barchasi Avloniy tomonidan tanqid qilinadi. Ayniqsa, madrasadagi "20 yilda sarf va nahv o'qish" kabi illatlar kulgili, biroq og'riqli tarzda ko'rsatiladi. Bu tanqid vositasida Avloniy madaniy va ta'limiy islohotga chaqiradi.

"O'z shahrimda sayohat" asari orqali Avloniy faqat kuzatuvchi emas, balki ogoh qiluvchi, uyg'otuvchi adib sifatida namoyon bo'ladi. U yozgan har bir sahnada tanqid mavjud, ammo bu tanqid o'zgarish va yangilanishga chaqiriquchi. Masalan, u choyxonada yolg'on gaplarni, bozorda axloqsizlikni, madrasada samarasiz ta'limni ko'rsatadi. Har bir ko'rilgan holat Avloniyga g'am, alam va umid uyg'otadi. Bu orqali u xalqni o'zgarishga, o'z ustida ishlashga da'vat etadi.

Bugungi kunda ham Avloniyning mazkur asari dolzarb ahamiyat kasb etadi. U yoshlarni faqat o'qishga emas, balki kuzatishga, tanqidiy fikrlashga, isloh qilishga o'rgatadi. Talaba, olim, ziyoli Avloniyning bu maqolasidan o'rnak olishi, atrofni sinchiklab kuzatib, ijtimoiy muammolarga befarq bo'lmasligi zarur. "Sayohat" bu yerda tashqi geografik safar emas, balki ijtimoiy anglash va axloqiy uyg'onish vositasi sifatida tushuniladi.

Abdulla Avloniyning "O'z shahrimga sayohat" nomli maqolasi o'zbek publitsistikasi tarixida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan asarlardan biridir. Bu maqola sayohat haqidagi qadimiy va zamonaviy tushunchalarni jamlab, ulardan pedagogik, ijtimoiy va axloqiy xulosalar chiqarishga qaratilgan.

Maqola boshida Avloniy sayohat qilayotgan va bu haqida maqola yozayotgan odamlarni tanqidiy nigoh bilan kuzatadi. U shunday deydi: "Ko'ramanki, ba'zi odamlar sayohat qiladilar. Jarida va jurnallarga qilgan sayohatlarini, ko'rgan-kechirganlarini oqizmay-tomizmay, ignasidan ipigacha yozadirlar. Men ularning yozganlarini ko'rib, achchig'im chiqib aytardimki, "Sayohat nima degan gap, mundan nima ma'no chiqar?"

Bu tanqidiy yondashuv keyinchalik ijobiy o'zgaradi. U sayohatni ijtimoiy, madaniy va ma'naviy maqsadlar bilan bog'laydi. Sayohat orqali boshqa viloyat, shahar yoki xalq hayoti, madaniyati, hunarmandchiligi, iqtisodiyoti, adabiyoti, axloqi haqida bilim olish mumkinligini ta'kidlaydi.

Nega "O'z shahrimga sayohat"?

Avloniy o'zi xorijsa chiqsa olmaganini sababli shunday qarorga keladi: "Chet ellarga sayohatga chiqishga biron-bir homiy yoki o'zimda imkoniyat bo'lguncha, o'z shahrimni aylanib turay." [4] Bu qaror zahirida o'z yurtini anglash, tanqidiy ko'z bilan kuzatish, uni isloh qilish istagi yotadi.

Avloniy maqola davomida Toshkentning turli nuqtalarini, ijtimoiy hayotini, bozorlardagi tartibsizliklarni, madrasalardagi ta'lim tizimining eskiligi, boylarning ziqqaligi, diniy riyokorlikni keskin tanqid qiladi. U ayniqsa:

Madrasalardagi ta'limning zamonga mos emasligini;

Boylar ro'za va zakotdagi hiyla ishlatishini;

Jamiyatdagi axloqiy, iqtisodiy va ma'naviy muammolarni dadil ko'tarib chiqadi.

Asar o'ta haqiqiy va xolis tilda yozilgan. Avloniy o'z kuzatuvlarini nafaqat tanqid bilan, balki yo'l ko'rsatish, isloh qilish istagi bilan tasvirlaydi. Uning yozuvidan shunday xulosa kelib chiqadi: sayohat qilish shart emas, balki o'z atrofi, jamiyati, shahrini chuqur tahlil qilish orqali ham katta xulosalarga kelish mumkin.

Avloniy bu maqola orqali sayohat tushunchasiga milliylik va tanqidiy tafakkurni qo'shadi; U o'z asari bilan o'quvchini ham o'z muhitini ko'zdan kechirishga, jamiyatdagi nuqsonlarni anglashga va isloh qilishga da'vat etadi;

Bu maqola o'z davrida juda katta ahamiyat kasb etgan bo'lsa-da, bugungi kunda ham dasturulamal publitsistik namunalar qatoridan joy oladi.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Avloniy "O'z shahrimda sayohat" asari orqali o'zbek adabiyotiga yangi mazmun olib kiradi. U sayohatni ichki o'zgarish, ijtimoiy islohotlar uchun turtki deb biladi. Bu asar orqali biz sayohatning nafaqat geografik, balki ruhiy va axloqiy ma'nosini ham anglaymiz. Avloniy uchun sayohat – jamiyatni ko'rish, baholash, tanqid qilish va uni isloh etish vositasidir. U buni o'z asari orqali badiiy va ijtimoiy jihatdan isbotlaydi. Jadid adabiyoti tarixida bu asar o'z o'rniga ega bo'lib, bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Abdulla_Avloniy
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Abdulla_Avloniy
3. Avloniy, A. "O'z shahrimda sayohat". Jadidlar merosi to'plami
4. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2 jildlik, 2-jild. 2-nashri. Toshkent: Ma'naviyat, 2006. – 229–230-betlar.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

XV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2026-yil, avgust

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XIV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 15-son (13-avgust, 2026-yil). – 103 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 10-avgust.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.